

Sardorbek Jabbarov

Namangan Muhandislik-Texnologiya Institutining

*“Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasи assistant o’qituvchisi,
Sejong Universiteti sharqshunoslik bo'yicha magistranti.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola fanlararo ta'lism asoslarini yoritadi va oliy ta'lim tizimida yo'nalishlararo kurslarning ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, tarmoqlararo yondashuv tarixi hamda qisqa va uzoq muddatda uni kelajak istiqbollarini qisqacha muhokama qiladi. So'ngida esa, ushbu kurslardan birini ishlab chiqish uchun na'muna va darslar tanlashda fakultet a'zolari va talabalar tomonidan e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi jihatlarni ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *fanlararo (tarmoqlararo/ yo'nalishlararo) oliy ta'lim muassasi (OTM), sinergiya, kooperatsiya, yo'nalishlararo ta'lim tizimi, bitiruv malaka loyihasi, integratsiya, kampus.*

Ko'p madaniyatli muhitda, kasbiy ko'nikmalarga ega va turli xil ta'lim darajasida bo'lgan shaxslar bilan samarali ishlay oladigan sifatli bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni ortib borayotganini hisobga olgan holda, dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ko'plab universitet va OTMlар aniq bir muammo yoki masalaga yechim topishga qaratilgan, ochiq-tanlov asosida o'qish mumkin bo'lgan fanlararo o'quv darsi va dasturlarini yaratishda innovatsiyalarga qo'l urmoqdalar. Bunday yuqori kurs darslari o'z ichiga nafaqat turli fanlardan olinadigan bilim ,malaka va tajribalar, balki turli fakultetlardan qatnashadigan talabalar o'rtasida jamoaviy ishlash va sinergiya muhitini yaratib bera olishi orqali o'z dolzarbligini oshirmoqda. Bunday kurslarga ortayotgan ehtiyoj, shuningdek OTM yoki universitetlar o'rtasida mahalliy va global miqyosdagi reytinglarga kirishda fanlararo kurslarning o'quv dasturiga kiritilganlik jihatlarini hisobga olinganligi va sezilarli darajada ko'rib chiqila boshlanganligi orqasidan yanada oshib bormoqda.

Masofaviy ta'lim, o'qitish texnologiyalarini rivojlanishi va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarning keng tarqalishi, OTMlarda kampuslararo va fakultetlararo hamkorlik salohiyatini misli ko'rilmagan darajada oshishiga olib kelmoqda (1).

Uzoq tarixga nazar soladigan bo'lsak, ibridoiy odamlar urug'ida terim yoki ov mavsumida samarali hosilga ega bo'lish uchun kooperativ (birgalashgan) holatda individlarning turli yumushlardagi mahorat va ko'nikmalardan foydalanishini guvohi bo'lamiz . Bunda urug'larning har biri o'z vositalarining eng yaxshi sifatlarini , ma'lum

bir ov uchun mos hudud va yoki hayvon turlariga qarab ov strategiyalarini taklif qila olishganligi diqqatga molik. Ya’ni bir urug’ a’zosi eng zo'r yer “razvedka” tadqiqotini olib kelsa, ikkinchisi eng yaxshi ov asboblarini (o’tkir toshlar, qo'l tayoqlari va boshqalar) yetkazib bergen va yana boshqasi esa mavsum davomida eng yaxshi qassoblik mahoratini taqdim qilib bera olganligini kuzatamiz. Keyinchalik bu jarayon yangi avlodlar uchun an'anaga aylanib, takomillashib va innovatsiyalashib, modernizatsiya hodisasi sodir bo’lish uchun turtki bo’lgan.

Tarmoqlararo yondashuvdan mohirona foydalanilganlikning eng yaxshi namunalari bu mashhur tarixiy imperiyalarda rivojlanishining oltin davrida kuzatiladi. Zabt etuvchilar buyuk inshootlar qurish uchun imperiyalarining turli nuqtalaridan taniqli ustalar, hunarmandlar va olimlarni poytaxt hududlariga olib kelishganligi va bu orqali sivilizatsiyalarining renessansiga yuz tutganligiga guvoh bo’lganmiz. Masalan, O’rta Osiyoning tarixiy shahri bo’lgan Samarqandda , hozirda O’zbekiston hududida joylashgan, Registon deb ataladigan mashhur maydon borki, u Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida O’rta asrlarda qurilgan va keyinchalik rekonstruksiya qilingan. Uchta yirik madrasadan (islomiy muassasalardan) iborat Registon o’sha davrning barcha buyuk falsafiy g’oyalari, san'at asarlari va hunarmandchilagini aks ettirgan holda bat afsil ko’rib chiqish uchun bitta loyiha (ansambil)da jamlangan.

Tarixiy asrlar (qadimgi tosh, bronza, o’rta, sanoat, va axborot asrlari osha) davomida insoniyatning butun dunyo bo’ylab o’sib borayotgan mobillik (globallashuv) natijasi o’laroq o’rganish va tadqiqotning fanlararo yondashuvi ko’plab ijtimoiy hayot sohalari, shu jumladan akademiyalar va OTMlarning har bir fan dasturlariga chuqur kirib bormoqda.

Kelgusi yillarda globallashuv va xalqarolashuv tufayli umumiylar yo'lida sinergiya yaratuvchi olimlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga talab yuqori bo’ladi, degan umidlar bor. Maqsadlardan asosiy katta biri, shubhasiz, koinotni o’rganishga qaratilgan bo’lsa, boshqasi nanotexnologiyaga tegishli bo’ladi deya ayta olamiz.

Qadimgi maqolda oyning bir tomoni yorug’, ikkinchi tomoni qorong'i ekanligi ta’kidlanganidek, ta’limning fanlararo hosiysi ham o’zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Quyidagi 1-jadvalda parallel ravishda uning talabalar va fakultet a’zolari uchun bir qator afzalliklar va kamchiliklar ko’rsatib o’tiladi.

Jadval 1

1	muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, baholash, sintez va integratsiyani o'z ichiga olgan bir qator intellektual qibiliyatlarni rivojlantiradi;	ammo birinchi navbatda fanlararo dasturga hissa qo'shadigan individual fanlardan kamida bittasida yetarli darajada ta'lif olinmasa, samarali bo'lishi so'roq ostidadir;
2	plyuralistik, texnogen va demokratik jamiyatda fuqarolik va ishchi roliga mukammal tayyorgarlik vositasidir;	lekin bu kabi dasturlar mohiyatan sayoz va intellektual qat'iylikka ega emas - dalillarga asoslanganligidir (idealistik).
3	oliy ta'lif bitiruvchilarini kelajakda ishga joylashish va rahbarlik lavozimlariga qanday qilib eng yaxshi tayyorlashga metodik ko'mak beradi.	biroq vaqt va pul jihatidan qimmatga tushadi, chunki ular ko'pincha jamoaviy o'qitish, mustaqil tadqiqotlar va fakultet a'zolarining talabalar soniga nisbati pastligiga tayanadi.
4	ixtisoslik yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lмаган kirish va tadqiqot kurslarini o'qitishga qiziqishlarini jonlantirish orqali professor-o'qituvchilarning ma'naviyatini yaxshilaydi.	aksincha turli sohalarda tahsil olib kelgan tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar o'rtasida umumiy til topish qiyin bo'lgan holatlarni vujudga keltirishi mumkin.
5	xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalaridagi ish beruvchilarga talabalarning faoliyat sifatini kuzatish, ularning ta'lifida ishtirok etish va chuqur texnik dizayn loyihasini tekshirish imkonini beradi.	zero ish beruvchilardan odatdagidan ko'ra ko'proq stajirovka, ishga joylashtirish, qisqa va uzoq muddatli malaka va doktorlik amaliyot muhitini moddiy tomonidan yaratishga chaqiradi

Odatda fanlararo kurslar mavzulari: ma'lum bir muammo, mintaqa, muassasa, shaxs yoki g'oya sifatida keng ta'riflangan mavzu atrofida tashkil etishga asoslanadi. Fanlararo katta-kurs dizayn dasturidan o'qitish jarayonida foydalanadigan professor-o'qituvchilar va universitetlar haqiqiy mahsulotlar va tizimlarni loyihalash, qurish va sinovdan o'tkazish, shu bilan birga professional jamoada ishlash ko'nikmalarini o'rganish va ko'p tarimoqli jamoada ishlashda loyihalarni o'z vaqtida va byudjet doirasida bajarish ustida umumiy bosh qotirishadi(2).

Dala-tadqiqot ishlari, amaliyot, xizmat ko'rsatish treyninglari va ekskursiya ilo'rganish kurslarida talabalar hayotiy tajribalarini sinfdagi ta'lif bilan bog'lashda yordam berish uchun fanlararo yondashuvlar qo'llanilishi mumkin(3). Kursni rejalashtirish, sinf tarkibini birlashtirish, o'qitish va ishtirokchilarni baholash uchun asosiy javobgarlikni barcha a'zolar, jumladan fakultet jamoasi, tutorlar yoki talabalarning o'zlarini, o'z zimmalariga olishlari mumkin.

Katta-kurs dizayn o'quv dasturini tanlashda talabalar va o'qituvchilar uchun bir nechta omillarni hisobga olish kerak. Quyidagi jadval fanlararo katta-kurs dizayn o'quv dasturlarini belgilashda va har bir bo'lim uchun katta-kurs dizayn dasturlani taqqoslashda qanday elementlarni hisobga olish kerakligini belgilaydi. Bunda o'quvchilarning faol ishtiroki, og'zaki va yozma ishlarda aniqlik va integratsiyalashuvi, jamoa a'zosi sifatida o'z-o'zini va tengdoshlarini mezonlay olishiga qarab yaxshi baholanadi (2-jadval). (4)

Jadval 2

Dastur Element Shakli	Bir tarmoq o'laroq katta-kurs	Ko'p tarmoqlararo katta-kurs
Fakultet Mentorি	Fakultetga qarab turlanadi	<ul style="list-style-type: none"> • Multi turdag'i fakultet yo'naliishlari
Loyha g'oyasi	Institut va mahalliy sanoat	<ul style="list-style-type: none"> • Milliy va xalqaro kompaniyalar
Loyha byudjeti	Loyihaga qarab turlanadi	<ul style="list-style-type: none"> • 30 mln SUM o'ziga xos UZBda (kichik va o'rta kompaniyalar, hukumat va gumanitar loyihamalar uchun istisnolar)
Loyha sayohati	<ul style="list-style-type: none"> • Faqatgina mahalliy 	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki sayohatlar to'liq moliyalashtiriladi • Mijoz joyiga kami 3 marta tashrif
Investor joylashuvi	<ul style="list-style-type: none"> • O'ziga xos: UZBdag'i mahalliy hudud 	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston • Ko'pi bilan 300 Km radiusda
Talaba o'quv yo'naliishi	<ul style="list-style-type: none"> • Faqat bir muhandislik fakultetida • Fakultetdagi 1 dan 3 ga yaqin ishtirok etishi mumkin kafedra yo'naliishlarni qamraydi 	<ul style="list-style-type: none"> • Barcha muhandislik, texnologiya iqtisodiyot-biznes va ijtimoiy fanlari
Kurs kreditlari	<ul style="list-style-type: none"> • Fakultetga qarab turlanadi • 3-kredit kurs 1 Semesterda yoki 6 kredit 2 semesterga yoyiladi 	<ul style="list-style-type: none"> • Ikkita 3-kredit kurslari (6 kredit)
Kurs strukturasi	<ul style="list-style-type: none"> • Fakultetga qarab turlanadi • Tashqi uchrashuvlar bilan suhbatlashish uchun amaliyotlar, potensial tegishli mavzular bo'yicha sind yechimlarni loyihalash jamoa va jarayonni ma'ruzalari 	<ul style="list-style-type: none"> • 1-kursda ma'ruzalar va sanoat bilan • 2-kursda yechimlarni ishlab chiqish, sinab ko'rish, baholash va taqdim etishdir • Haftalik mijoz bilan uchrashuvlar rivojlantirish;
Talab etilgan prototiplar	<ul style="list-style-type: none"> • Fakultetga qarab turlanadi • Odadta, yakuniy prototip 1) 1-Semester yakuni (yo'l xaritasi qabul qilinadi) 	<ul style="list-style-type: none"> • Minimum Hayotiy Mahsulot (MHM) • MHM2 2-Semester yakuni • To'liq funksional tizim 2-Semester so'ngida

Xulosa qilib aytganda, tarmoqlar va yo'nalishlararo yondashuv ishtirokchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda puxta belgilangan rejalar, tafsilotlar va maqsadlar bilan tartibli tuzilgan bo'lsa, kampus uchligining har bir a'zo guruhlari (talabalar, fakultetlar va ish beruvchilar) uchun katta foyda keltirishi mumkin.

Fanlararo loyihalarni muvaffaqiyatli qo'llash odatda kampusdagi va tashqaridagi manfaatdor tomonlar uchun qisqa muddatda umumiy mamnuniyatlik hissini keltiradi va uzoq muddatda institutning global reytingdagi o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Palgrave kommunikatsiyalari / Oliy ta'limdagi fanlararo tendentsiyalar / V. Jeyms Jeykob
2. International Journal of Educational Research Open / “Akademik motivatsiya va jamoaviy ishning xilma-xilligiga e'tibor qaratiladigan fanlararo oliy ta'lim” / A. Korbacho, L. Minini, M. Pereyra va boshqalar.
3. ENCYCLOPEDIA.com / Oliy ta'limdagi fanlararo kurslar va yo'nalishlar
4. Integrativ tadqiqotlar uyushmasi veb-sayti, <http://www.units.muohio.edu/aisorg/>